

GAP TAHLILIDA NOANA'NAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI

Tuychiyev Soxibjon Erkinovich
SamDCHTI o'qituvchisi
sohibjontuychiev1982@gmail.com
+998885350016

Annotatsiya. Ushbu maqola gap tahlilida noana'naviy yondashuvlarning ahamiyati deb nomlanib, gap tarkibida ishtirok etayotgan lingvistik birliklarni tahlil qilishda noana'naviy yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berishga qaratilgan. Jumladan, gap tarkibidagi birliklarning kategorial va nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: lingvistik birlik, noana'naviy yondashuv, tahlil metodi, kategorial va nokategorial belgilar, differensial sintaktik-semantik belgilar, tashqi va ichki qurilma, sintaksema, protsessuallik, kvalifikativlik, va substansiallik.

Zamonaviy jahon tilshunosligida gap tarkibini tahlil qilishda turli lingvistik tahlil usullaridan keng qo'llanilib kelinmoqda. Shu bilan birga, tilshunos olim N. Chomskiy tomonidan yaratilgan "Transformatsion grammatika" nazariyasi asosida gapning tashqi va ichki qurilmasi tushunchalari paydo bo'lganligi bois, bu sohada ham o'ziga xos yangi yo'nalishlar ochildi. N.Chomskiyning fikriga ko'ra, muayyan gapning boshlang'ich shakli tashqi (surface structure), transformatsiya qilish natijasida paydo bo'lgan hosila gapning ichki (deep structure) qurilmasi hisoblanadi, har qanday til sintaksisini bilish gap ichki qurilmasini tashkil qiluvchi birikmalar to'plami qoidalarini bilishni o'z ichiga oladi, degan fikr olg'a surilgan [8,178]. Biroq A.M.Muxin tomonidan ishlab chiqilgan lingvistik metodlar yordamida gapning ichki qurilmasi deganda, O.U.Usmonovning e'tirof etishicha, sintaksemalarga ajratib tahlil qilish, aniqlangan komponentlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini, ularning variantlarini hamda sintaktik aloqalar asosida boshqa sintaksemalar bilan birika olish imkoniyatlarini aniqlash nazarda tutiladi [5, 105-108; 6, 35-37].

Yuqorida keltirilgan fikrga asoslanib, mazkur kichik ilmiy tadqiqotimizda tillaridagi gap qurilmasida ishtirok etayotgan birliklarni tahlil qilishda noana'naviy yondashuvlar haqida ayrim mulohazalarga e'tibor qaratamiz. Tahlil jarayonida gap tarkibidagi komponentlar sintaksemalarga bo'linadi. Bunda, avvalo, kategorial differensial sintaktik-semantik belgilar sifatida "protsessuallik," "kvalifikativlik," va "substansiallik" semalar aniqlanadi. Shuningdek, mazkur semalar qamrab oladigan nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilar ham aniqlab, ularning paradigmatic qatori ham ochib beriladi.

Sintaksemalarni aniqlash jarayonida tahlil qilinayotgan gapning o'ziga xos xususiyatlaridan tashqari, uning tarkibidagi kategorial va nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilarni boshqa gaplardagi sintaksemalar bilan taqqoslab o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda e'tiborga molik jihatlardan biri shundaki, gap tarkibidagi sintaktik birliklarni komponentlarga bo'lish va ularni sintaksemalarga ajratish jarayonida umumiy sintaktik aloqalar asos qilib olinadi. Shuningdek, ushbu usul sintaktik tahlilning yaxlitligini ta'minlaydi va sintaktik tuzilmalarni chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Ma'lumki, "protsessuallik" atamasi protsess so'zidan olingan bo'lib, jarayon ma'nosini ifodalab, u substansial va kvalifikativ belgilarga qarama-qarshi qo'yiladi. Protessuallik kategorial belgilardan biri hisoblanib, sintaktik sathda aksionallik (harakat), passivlik (yo'naltirilganlik) va stativlik (holat) kabi bir qancha nokategorial belgilarni ham o'zida aks ettiradi [1,78; 303-b., 3, 24].

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, protsessuallik sintaksemalarini ifodalovchi unsurlarning leksik manbai, asosan, turli xil semantikaga ega bo'lgan fe'llar, infinitiv, hozirgi va o'tgan zamon sifatdoshlar kabilarni o'z ichiga qamrab oladi. Ayrim tilshunos olimlar holatni

ifodalovchi fe'llarni harakatni ifodalovchi fe'llardan farqlash kerakligini taklif qilib, bu xususiyatni, asosan, leksik birliklarning o'timli yoki o'timsiz bo'lishi bilan bog'laydilar [2, 123].

A.Xojiyevning ta'kidlashiga ko'ra, o'zbek tilida "...fe'l harakatni, holatni, ruhiy holatni, biologik jarayonni ifodalaydi"[7, 4]. Demak, protsessuallik negizida fe'lning harakat yoki holatni ifodalashi tan olingan, biroq harakat yoki holatni bir-biridan farqlash masalasi ilmiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilmaganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

J.Millerning ta'kidlashicha, ingliz tilidagi stativlikni ifodalovchi sintaktik unsurlarni farqlashda uchta mezonga amal qilish lozim: a) holatni ifodalovchi fe'llar ko'pgina sifatlar kabi buyruq gaplarda qo'llanilmaydi; b) holatni ifodalovchi fe'llar progressiv shakllarda ishlatilmaydi; c) holatni ifodalovchi fe'llar tarzni ifodalaydigan ravishlar bilan birikmaydi [9, 433]. Ammo bizning fikrimizcha, aksionallik va stativlikni ifodalovchi fe'llarni gap qurilmasidagi distributsiyasi va boshqa sintaksemalar bilan birikish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda farqlash mumkin.

Kvalifikativlik kategorial belgilardan biri sifatida sintaktik sathda muhim differensial sintaktik-semantik xususiyatga egadir. Uning protsessuallik va substansiallikdan asosiy farqi shundaki, kvalifikativlik substansiyaning yoki jarayonning umumiy tavsifini ifodalaydi. Bunday tavsif kvalitatiflik (sifat xususiyatlari), komparativlik (solishtirish xususiyatlari) va stativlik (holatni) qamrab olishi mumkin. Gap qurilmasida kvalifikativlikning leksik manbai asosan sifatlar, sifatlashgan elementlar, sonlar va otlar kabi leksik birliklardan tashkil topadi, bu esa uning semantik va sintaktik rolini yanada kengroq ko'rsatadi. F.Usmonovning fikriga ko'ra, ingliz tilida "kvalifikativlikni ifodalovchi unsurlar subordinativ aloqa asosida *rather, too, very, so, how* o'zbek tilida esa *juda, eng, o'ta, ham* kabi til belgilari bilan birika oladi. Agarda kvalifikativlik ot bilan ifodalanagan bo'lsa, u ko'rsatish, egalik olmoshlari bilan bog'lana olmaydi"[4, 19]. Har uchala kategorial belgilarning ifodalanishi so'z turkumlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lash to'g'ri emas, degan xulosaga kelish mumkin. Shu sababli, substansiallikni faqat ot bilan cheklash maqsadga muvofiq emas, chunki substansiallik ot, olmosh, sifat, son, hatto ravish orqali ham ifodalanishi mumkin. Ayniqsa, gap tarkibidagi elementlarni sintaksemalarga ajratish jarayonida substansiallikning tillardagi turli so'z turkumlari orqali ifodalanishiga alohida ahamiyat beriladi. Bunda ular faqat nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilarga ko'ra o'zaro farq qiladi, bu esa har bir tilning o'ziga xosliklarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ashurov Sh.S. Ingliz va o'zbek tillarida kesim tipologiyasi. Filol.fan. nom. diss. – Samarqand, 2007. – 154 b.
2. Бархударов Л.С., Штелинг Д.А. Грамматика английского языка: Учебник. Изд. 7-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – 424 с.
3. Тикоцкая К.Е. Структура предложений с каузативными глаголами в современном английском языке. Автореф.дисс.канд. филол. наук. – Минск, 1975. –24с.
4. Усманов Ф.М. Синтактико-семантическая сопоставления двусоставных безглагольных предложений (на материале английского и узбекского языков) //Дисс.канд.филол.наук. – Самарканд: 2012. – 149с.
5. Usmonov O'.U. Gap tahliliga yangicha yondashuv// Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman (SamDCHTIning 10 yilligiga bag'shlanadi). – Samarqand, 2004. – B.105-108.
6. Usmonov O'.U. Talabalarga sintaktik tahlilni o'rgatishga doir ayrim mulohazalar// Chet tili o'qitish metodikasining asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand, 2011 yil, 12-13 aprel, SamDCHTI nashri. – 2011. – B. 35-37.
7. Hojiyev A. Fel. – Toshkent: Fan, 1973. – 192 b.
8. Chomsky N. Deep structure, surface structure and Semantic interpretation // In Steinberg and Jakobits. 1971. – P. 183-216.
9. Miller J. Stative verbs in Russian. Foundation of language, 1970 vol. 6. N4.– P.488-504.